

Himoya – sharafli burch

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 27 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini munosib kutib olish va uni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash, yoshlar bilan "Vatan muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!" degan umumiy g'oya ostida tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Yunusobod tumani bo'linmasi bilan hamkorlikda harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmasi professor-o'qituvchilari ta'lim muassasalariga tashrif buyurib, u yerdagi yoshlar bilan davra suhbatini olib bordilar.

Yunusobod kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kollejida tashkil etilgan davra suhbatida harbiy kafedra o'qituvchilari rezervdagi podpolkovniklar Jurayev Luqmonjon Ismoiljonovich va Navruzov Raxmat Maxmudovich hamda harbiy kafedra maxsus tayyorgarlik sikl talabalari Maxmudov Azizxo'ja Akram-o'g'li, Isabayev Nursulton Kasimbekovich, Musayev Tolibjon Aliakbar-o'g'li talabalar qatnashdilar. Ushbu kollej direktori Xayitbayev Nusrat Sa'dullayevich davra suhbatida qatnashuvchilarni yoshlarga tanishtirganidan keyin tadbir boshlandi. Rezervdagi podpolkovnik R.M. Navruzov o'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarida bo'layotgan islohotlar va harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyati va ularning xizmat davomida ko'rsatgan Mardlik va jasorati haqida ma'lumotlar berdi.





Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti harbiy kafedrası boshlig'i podpolkovnik R. Minlishev axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov